

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SUDYALAR OLIY KENGASHI
HUZURIDAGI SUDYALAR OLIY MAKTABI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.37/27.02.2020.Yu.107.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

BERDAQ NOMIDAGI QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI

ADILBAEV BEKBOSÍN ABATBAEVICH

**VAKILLIK MUNOSABATLARINI FUQAROLIK-HUQUQIY TARTIBGA
SOLISHNI TAKOMILLASHTIRISH**

12.00.03 – Fuqarolik huquqi. Tadbirkorlik huquqi. Oila huquqi.
Xalqaro xususiy huquq

**yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent– 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Content of the abstract of the dissertation of the Doctor of Philosophy (PhD)

Adilbaev Bekbosin Abatbaevich

Vakillik munosabatlarini fuqarolik-huquqiy tartibga solishni takomillashtirish.....3

Адилбаев Бекбосын Абатбаевич

Совершенствование гражданско-правового регулирования представительских отношений21

Adilbaev Bekbosin Abatbaevich

Improving civil law regulation of representative relations.....39

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works44

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SUDYALAR OLIY KENGASHI
HUZURIDAGI SUDYALAR OLIY MAKTABI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.37/27.02.2020.Yu.107.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

BERDAQ NOMIDAGI QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI

ADILBAEV BEKBOSÍN ABATBAEVICH

**VAKILLIK MUNOSABATLARINI FUQAROLIK-HUQUQIY TARTIBGA
SOLISHNI TAKOMILLASHTIRISH**

12.00.03 – Fuqarolik huquqi. Tadbirkorlik huquqi. Oila huquqi.
Xalqaro xususiy huquq

**yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent– 2025

Falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.3.PhD/Yu1143 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.sudyalaroliymaktabi.uz) va “ZiyoNet” Axborot-ta’lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Kutlimuratov Farxad Kalbaevich
yuridik fanlar doktori (DSc), professor v.b

Rasmiy opponentlar:

Djoldasova Saxipjamal Djalg‘asovna
yuridik fanlar doktori (DSc), dotsent

Babaev Djahongir Ismoilbekovich
yuridik fanlar doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti

Dissertatsiya himoyasi O‘zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi huzuridagi Sudyalar oliy maktabi huzuridagi PhD.37/27.02.2020.Yu.107.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil 8-iyul kuni soat 14:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 100047, Toshkent shahar, Chilonzor tumani, Cho‘ponota ko‘chasi, 6-uy. Tel./faks: (+998) 555010189, e-mail: sudyalaroliymaktabi@umail.uz).

Dissertatsiya bilan Sudyalar oliy maktabining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (40-25-raqam bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 100097, Toshkent shahar, Chilonzor tumani, Cho‘ponota ko‘chasi, 6-uy. Tel.: (+998)555010189).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil 23-iyun kuni tarqatildi.
(2025-yil “23” iyundagi 22-raqamli reestr bayonnomasi).

I.I. Nasriyev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, yuridik fanlar doktori, professor

O.B.Shamsiddinova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dotsent v.b

F.H. Otaxonov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, yuridik fanlar doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoda fuqarolar va yuridik shaxslarning huquqlarini va manfaatlarini ta'minlashda vakillarning ishtirok etishining huquqiy asoslarini belgilash hamda shartnomaviy tartibga solishga alohida e'tibor qaratiladi. Vakillik orqali odatdagi maishiy tUSDagi huquq va majburiyatlarga bilan birga, professional bilim va malaka talab etiladigan sohalaridagi huquq va majburiyatlarning samarali va har tomonlama maqbul amalga oshirish imkoni mavjud bo'ladi. Bu esa shaxslarning huquqlarini, xususan, mulk huquqini himoya qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. Zero Mulk huquqini himoya qilishning xalqaro indeksi (International Property Right Index) ma'lumotlariga ko'ra 2023 yilda eng yuqori ko'rsatkichlarga quyidagi davlatlar erishgan: Finlandiya (8,090), Singapur (7,958), Niderlandiya (7,853), Daniya (7,812), Yangi Zelandiya (7,793)¹. Bu esa o'z navbatida, vakillik, xususan, suddagi vakillik, qonuniy vakillik kabi fuqarolik huquqlarini amalga oshirish vositalarini takomillashtirish zarurati bilan bog'liqdir.

Jahonda vakillikka nisbatan bir qator ilmiy-huquqiy yondashuvlar amal qiladi. Jumladan, "xayoliy (fiktiv) topshiriq" nazariyasi (Fransiya, Belgiya, Argentina, Braziliya, Chili), "ajratish nazariyasi" (Germaniya, Shveysariya, Turkiya, Gresiya, Shvesiya, Daniya, Norvegiya, Finlyandiya, Yaponiya, Italiya), "shaxsiyatning o'xshashligi nazariyasi" (Buyuk Britaniya, AQSh) kabi nazariyalar vakillik munosabatlariga nisbatan amal qiladi. Shu bilan birga dunyoning rivojlangan mamlakatlarida boshqa shaxs manfaatlar uchun uning nomidan va hisobidan harakat qilishning shartnomaviy-huquqiy konstruksiyalarini aniq ifodalash, tadbirkorlik faoliyatida vakillikni qo'llashning huquqiy asoslarini takomillashtirish masalalarida tadqiqotlar amalga oshirilmoqda.

O'zbekistonda vakillikni maishiy va tadbirkorlik sohalarida qo'llashning muayyan huquqiy asoslari yaratilgan. Bitimlarni vakillar orqali tuzish, mol-mulkni boshqarish, sudda huquqlarni himoya qilishda vakillik keng qo'llaniladi. Shunga qaramasdan amaldagi qonunchilik va milliy sivilistik doktrinada vakillikka oid qoidalar yetarli ifodalangan va tadqiq etilgan deb hisoblab bo'lmaydi. Ayniqsa, vakolatsiz vakillikning huquqiy oqibatlari, ishochnomaning shakliga nisbatan talablarni liberallashtirish, qaytarib berilmaydigan ishonchnomani joriy etish hamda tijorat vakilligiga oida qoidalarni aniqlashtirish dolzarb tusga ega. Shu bilan birga o'zaro ishonchga asoslangan vakillik munosabatlarida taraflarning manfaatlarini ta'minlashning aniq huquqiy mexanizmlarini ishlab chiqish ham muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi (*bundan buyon matnda FK deb yuritiladi*) (1995, 1996), O'zbekiston Respublikasining "Vasiylik va homiylik to'g'risida"gi (2014), "Metsenatlik to'g'risida"gi (2019), "Homiylik to'g'risida"gi (2007), "O'zbekiston Respublikasida jamoat birlashmalari to'g'risida"gi (1991) qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil

¹ Рейтинг стран мира по индексу защиты прав собственности // <https://gtmarket.ru/ratings/international-property-right-index>

28-yanvardagi PF-60-son “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”, 2020-yil 22-iyundagi PF-6012-son “Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasining milliy strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi farmonlari, 2021-yil 17-fevraldagi PQ-4996-son “Sun‘iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori va mavzuga oid boshqa qonunchilik hujjatlarida belgilangan ustuvor vazifalarning amalga oshirilishida mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi. Mazkur dissertatsiya respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Fuqarolik huquqi vakillik munosabatlari milliy sivilistik olimlar tomonidan alohida tadqiqot ishi doirasida o‘rganilmagan. Shunday bo‘lsada, darsliklar, sharhlar va o‘quv qo‘llanmalari doirasida vakillikning u yoki bu jihatlari yoritilganligini ko‘rish mumkin. Xususan, H.R.Rahmonqulov, I.B.Zokirov, O.Oqyulov, D.M.Karaxodjaeva, N.F.Imomov va boshqalar tomonidan vakillik oid masalalar o‘quv adabiyotlari doirasida yoritilgan. R.J.Matkurbanov, N.A.Ashurova, Sh.R.Yuldasheva, Z.Solievalar² tomonidan vasiylik va homiylik masalalarida doirasida vakillikka to‘xtab o‘tilgan.

MDH mamlakatlarida fuqarolik huquqidagi vakillik instituti D.B.Korotkov, A.R.Muratova, M.Yu.Dorojenko, O.V.Pantelishina, Ye.A.Krashennikov, N.O.Nersesov, A.B.Babaev, Ye.L.Nevzgodina³ va boshqalarning asarlarida tadqiq qilingan.

Xorijiy mamlakatlarda vakillikning huquqiy tartibga solinishi masalalari J. Hupka, K.Larenz, M.Wolf, William A.Gregory, R.Leonhard, A.Manigk, S.Schlossmann, R.Hoffmann, H.Oser⁴ kabi olimlar tomonidan o‘rganilgan.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Qoraqalpoq davlat universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq “Shartnomaviy munosabatlarni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlarini ishlab chiqish” mavzusidagi ilmiy yo‘nalish doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi vakillik munosabatlarini fuqarolik-huquqiy tartibga solishni takomillashtirishga oid taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

vakillik tushunchasi va uning o‘ziga xos xususiyatlarini ochib berish;
vakillikning fuqarolik-huquqiy institut sifatidagi mohiyatini tahlil qilish;
vakillik munosabatlarini fuqarolik-huquqiy tartibga solish asoslarining rivojlanish genezisini yoritish;

² Ushbu va boshqa olimlarning ilmiy ishlari dissertatsiyaning foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatida keltirilgan

³ Ushbu va boshqa olimlarning ilmiy ishlari dissertatsiyaning foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatida keltirilgan

⁴ Ushbu va boshqa olimlarning ilmiy ishlari dissertatsiyaning foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatida keltirilgan

vakolat beruvchining huquqiy maqomi ifodalashning asosiy masalalarini tadqiq etish;

vakilning huquqiy maqomining o'ziga xos jihatlarini aniqlash;

vakilning huquq va majburiyatlarini amalga oshirilishini tahlil qilish;

vakillik turlarining tasniflanishi va ularning namoyon bo'lishning fuqarolik-huquqiy tartibga solinishini o'rganish;

vakolatsiz vakillik va tijorat vakilligini takomillashtirish masalalarini belgilash;

vakillikni rasmiylashtirish asoslarini takomillashtirish muammolari aniqlash va uning hal qilish yo'llarini ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning obyekti sifatida vakillik munosabatlarini fuqarolik-huquqiy tartibga solishning, shuningdek, ular bilan bog'liq oilaviy munosabatlarining nazariy va amaliy muammolari olingan.

Tadqiqotning predmetini vakillik munosabatlarini fuqarolik-huquqiy tartibga solishga doir normativ-huquqiy hujjatlar, huquqni qo'llash amaliyoti, ayrim xorijiy mamlakatlar qonunchiligi, amaliyoti hamda yuridik fanda mavjud bo'lgan konseptual yondashuvlar, ilmiy-nazariy qarashlar va huquqiy kategoriyalar tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot davomida tarixiy, taqqoslash-qiyoslash, analiz va sintez, induksiya va deduksiya, ma'lumotlar tahlili kabi usullar qo'llanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

bolaning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari buzilganda, shu jumladan ota-ona (ulardan biri) yoki ota-onaning o'rnini bosuvchi shaxslar bolaga ta'minot, tarbiya va ta'lim berish bo'yicha majburiyatlarini bajarmaganda yoki lozim darajada bajarmaganda yoxud ota-onalik huquqlarini suiiste'mol qilganda bola o'z huquqlari va qonuniy manfaatlari himoya qilinishini so'rab vasiylik va homiylik organiga, shuningdek boshqa davlat organlariga mustaqil ravishda murojaat qilishga haqli ekanligi asoslangan;

ota-ona uch oydan ortiq muddatga yashash joyidan, shu jumladan, chet davlatga vaqtincha chiqib ketayotganida o'z bolasiga vasiy yoki homiy tayinlash choralarini ko'rish shartligi asoslantirilgan;

ota-ona uch oydan ortiq bo'lmagan muddatga yashash joyidan, shu jumladan, chet davlatga vaqtincha chiqib ketayotganida o'z bolasini qarindoshlarining yoki boshqa yaqin kishilarining vasiylikida yoki homiylikida va nazorati ostida qoldirishi kerakligi asoslantirilgan;

ota-ona uch oyda bolasini qoldirib ketgan holda vasiylik yoki homiylik agar bolaning manfaatlari uchun zarur bo'lsa, belgilanishi lozimligi asoslantirilgan;

ota-ona uch oydan ortiq muddatga yashash joyidan, shu jumladan, chet davlatga vaqtincha chiqib ketishidan kamida bir oy oldin o'z bolasiga vasiy yoki homiy tayinlash to'g'risidagi arizani o'zi vaqtincha yoki doimiy yashayotgan hududning vasiylik va homiylik organiga berishi kerakligi asoslantirilgan;

vasiylik yoki homiylikdagi shaxsning ta'minotiga doir xarajatlarining o'rni vasiylikdagi yoki homiylikdagi shaxs mablag'lari hisobidan qoplanadi, bu mablag'lar yetarli bo'lmagan taqdirda esa, vasiylikdagi yoki homiylikdagi

shaxsning ta'minoti uchun vasiy va homiyga qonunchilikda belgilangan tartibda nafaqa tayinlanishi mumkinligi asoslantirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

vakillik doirasini belgilashda irodani faqat yetkazib beruvchi shaxslar, shuningdek kelgusida tuzilishi mumkin bo'lgan bitimlar yuzasidan muzokaralarga kirishishga tayinlangan shaxslar vakil hisoblanmasligi asoslab berilgan;

vakolatsiz vakil tomonidan tuzilgan bitimlar vakolat beruvchi tomonidan ma'qullanmagan taqdirda huquq va majburiyatlar vakolatsiz harakat qilgan shaxsga nisbatan vujudga kelishi lozimligi asoslantirilgan;

ishonchnomaning shakliga nisbatan shakllarini liberallashtirish, ya'ni og'zaki shakldagi ishonchnomani qonunchilikda belgilash haqidagi fikrlar ilgari surilgan;

ishonchnomaning muddatini cheklashga oid talablarni bekor qilish lozimligiga oid ilmiy-amaliy taklif ishlab chiqilgan;

qaytarib berilmaydigan ishonchnomaga oid qoidalar FKga kiritish lozimligi, bu o'z navbatida tadbirkorlik faoliyati sohasidagi barqarorlikni ta'minlashga xizmat qilish asoslab berilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tegishli metodologiyadan foydalangan holda vakillik munosabatlari qiyosiy tahlili va rivojlangan huquqiy tizimlar tajribasini qo'llash, shuningdek, sud amaliyotini o'rganish, vakillik munosabatlarini tartibga soluvchi milliy va xorijiy qonun hujjatlarini tahlil qilish, tadqiqot natijalarini qonunchilikka joriy etish va ularni davlat organlari tomonidan qabul qilinishi orqali tasdiqlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati undagi ilmiy-nazariy xulosalar, taklif va tavsiyalardan kelgusi ilmiy faoliyatda, qonun ijodkorligida, huquqni qo'llash amaliyotida, fuqarolik qonun hujjatlarining tegishli normalarini sharhlashda, milliy qonunchilikni takomillashtirish hamda fuqarolik huquqi, shartnoma huquqi fanlarini ilmiy-nazariy jihatdan boyitishda xizmat qilishi mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati qonun ijodkorligi faoliyatida, xususan, normativ-huquqiy hujjatlar tayyorlash hamda ularga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish jarayonida, huquqni qo'llash amaliyotini takomillashtirishda, oliy yuridik ta'lim muassasalarida xususiy huquq sohasidagi fanlarni o'qitishda xizmat qilishi mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Tadqiqot ishi bo'yicha olingan ilmiy natijalardan quyidagilarda foydalanilgan:

bolaning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari buzilganda, shu jumladan ota-ona (ulardan biri) yoki ota-onaning o'rnini bosuvchi shaxslar bolaga ta'minot, tarbiya va ta'lim berish bo'yicha majburiyatlarini bajarmaganda yoki lozim darajada bajarmaganda yoxud ota-onalik huquqlarini suiiste'mol qilganda bola o'z huquqlari va qonuniy manfaatlari himoya qilinishini so'rab vasiylik va homiylik organiga, shuningdek boshqa davlat organlariga mustaqil ravishda murojaat qilishga haqli. Bunday murojaatlarni bola to'liq muomala layoqatiga ega bo'lmaganligi sababli ko'rib chiqmasdan qoldirishga yo'l qo'yilmasligiga oid taklifdan Qoraqalpog'iston Respublikasining 2023-yil 26-dekabrda 363/XLVII-son Qonuni bilan Qoraqalpog'iston Respublikasining 2012-yil

28-dekabrda №145/XI “Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonuni 11-moddasi beshinchi qismiga qo‘shimcha va o‘zgartish kiritishlarni ishlab chiqishda foydalanilgan (Qoraqalpog‘iston Respublikasi Joqorg‘i kenesining Sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish qo‘mitasining 2024-yil 7-oktyabrda 03-14-22/1-son dalolatnomasi). Ushbu taklifning joriy etilishi bolaning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari buzilganda, bola o‘z huquqlari va qonuniy manfaatlari himoya qilinishini so‘rab vasiylik va homiylik organiga, shuningdek boshqa davlat organlariga mustaqil ravishda murojaat qilishga haqli ekanligiga asos yaratgan;

ota-ona uch oydan ortiq muddatga yashash joyidan, shu jumladan, chet davlatga vaqtincha chiqib ketayotganida o‘z bolasiga vasiy yoki homiy tayinlash choralarini ko‘rishi lozimligiga oid taklifdan O‘zbekiston Respublikasining 2023-yil 11-aprelda O‘RQ-829-son “Xotin-qizlar va bolalar huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilish tizimi yanada takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi Qonunining 9-moddasi 11-bandini ishlab chiqishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining Sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish qo‘mitasining 2024-yil 7-noyabrda 12-son dalolatnomasi). Ushbu taklifning joriy etilishi ota-ona o‘z yashash joyida bo‘lmaganida bolasining huquq va manfaatlarini himoya qilishga oid choralar ko‘rishi bo‘yicha majburiyatlarini aniqlashga xizmat qilgan;

ota-ona uch oydan ortiq bo‘lmagan muddatga yashash joyidan, shu jumladan, chet davlatga vaqtincha chiqib ketayotganida o‘z bolasini qarindoshlarining yoki boshqa yaqin kishilarining vasiyligida yoki homiylikda va nazorati ostida qoldirishi lozimligi taklifidan O‘zbekiston Respublikasining 2023-yil 11-aprelda O‘RQ-829-son “Xotin-qizlar va bolalar huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilish tizimi yanada takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi Qonunining 9-moddasi 11-bandini ishlab chiqishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining Sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish qo‘mitasining 2024-yil 7-noyabrda 12-son dalolatnomasi). Mazkur taklifning qo‘llanilishi o‘z navbatida bolalarni nazoratsiz qoldirmaslik bo‘yicha ota-onalarning majburiyatlarini belgilab bergan;

ota-ona uch oydan ortiq muddatga o‘z bolasini qoldirib ketgan holda vasiylik yoki homiylik agar bolaning manfaatlari uchun zarur bo‘lsa, belgilanishi lozimligi haqidagi taklifdan O‘zbekiston Respublikasining 2023 yil 11 aprelda O‘RQ-829-son “Xotin-qizlar va bolalar huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilish tizimi yanada takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi Qonunining 9-moddasi 11-bandini ishlab chiqishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining Sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish qo‘mitasining 2024-yil 7-noyabrda 12-son dalolatnomasi). Ushbu taklif bolalarga

vasiylik va homiylikni belgilash bo'yicha aniq talablarni shakllantirishga zamin yaratgan;

ota-ona uch oydan ortiq muddatga yashash joyidan, shu jumladan, chet davlatga vaqtincha chiqib ketishidan kamida bir oy oldin o'z bolasiga vasiy yoki homiy tayinlash to'g'risidagi arizani o'zi vaqtincha yoki doimiy yashayotgan hududning vasiylik va homiylik organiga berishi zarurligi to'g'risidagi taklifdan O'zbekiston Respublikasining 2023 yil 11 apreldagi O'RQ-829-son "Xotin-qizlar va bolalar huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilish tizimi yanada takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi Qonunining 9-moddasi 11-bandini ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining Sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish qo'mitasining 2024-yil 7-noyabrdagi 12-son dalolatnomasi). Mazkur taklif ota-ona qaramog'idan vaqtincha mahrum bo'lgan bolalarni joylashtirish bo'yicha vasiylik va homiylik organlarining vazifalarni aniqlashtirish xizmat qilgan;

vasiyning yoki homiyning o'z vasiylikdagi yoki homiylikdagi shaxsning ta'minotiga doir xarajatlarining o'rni vasiylikdagi yoki homiylikdagi shaxs mablag'lari hisobidan qoplanadi, bu mablag'lar yetarli bo'lmagan taqdirda esa, vasiylikdagi yoki homiylikdagi shaxsning ta'minoti uchun vasiy va homiyga qonunchilikda belgilangan tartibda nafaqa tayinlanishi mumkinligi to'g'risidagi taklifdan O'zbekiston Respublikasining 2023 yil 11 apreldagi O'RQ-829-son "Xotin-qizlar va bolalar huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilish tizimi yanada takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi Qonunining 9-moddasi 13-bandini ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining Sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish qo'mitasining 2024-yil 7-noyabrdagi 12-son dalolatnomasi). Ushbu taklif vasiylik yoki homiylikdagi shaxsning ta'minotiga doir xarajatlarining o'rni qoplash manbalarini aniqlashga asos yaratgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 2 ta respublika miqyosida o'tkazilgan ilmiy-amaliy konferensiya hamda seminarlarda sinovdan o'tgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 13 ta ilmiy ish, jumladan, 9 ta ilmiy maqola (2 tasi xorijiy nashrlarda) chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiya hajmi 122 betni (foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan tashqari) tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish (dissertatsiya annotatsiyasi)** qismida tadqiqotchi

tomonidan tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo‘nalishlariga muvofiqligi, tadqiq etilayotgan muammoning o‘rganilganlik darajasi, dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog‘liqligi, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obyekti va predmeti, usullari, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijasi, tadqiqot natijalarining ishonchliligi, tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati, ularning joriy qilinganligi, tadqiqot natijalarining aprotatsiyasi, natijalarning e‘lon qilinganligi, dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi yoritib berilgan.

Dissertatsiyaning **“Vakillikning mohiyati va fuqarolik-huquqiy asoslarning ilmiy-nazariy tahlili”** deb nomlangan birinchi bobida vakillik tushunchasi va uning o‘ziga xos xususiyatlari, vakillikning fuqarolik-huquqiy institut sifatidagi mohiyati, vakillik munosabatlarini fuqarolik-huquqiy tartibga solish asoslarining rivojlanish genezisi tahlil qilingan.

Vakillik instituti – bu yuridik texnik taomillar jamlanmasi bo‘lib, bu orqali vakil deb nomlangan shaxs uchunchi shaxslar bilan vakolat bergan shaxsga nisbatan yuridik harakatlarni uning nomidan va hisobidan amalga oshiradi. Vakillik bir shaxsni boshqa shaxs bilan almashtirish imkoniyatiga, qonun tomonidan belgilanadigan (qonuniy vakillik) yoki ruxsat beradigan (shartnomaviy va sud vakili) almashtirishga asoslanadi va bu orqali bir shaxs tomonidan sodir etilgan xatti-harakatlarning oqibati to‘g‘ridan-to‘g‘ri uning o‘ziga nisbatan emas, balki shunday vakolatni bergan shaxsga nisbatan yuzaga kelishini ifodalaydi.

Dissertatsiyada vakillikning tushunchasi va mohiyatiga oid bir qator huquqshunos olimlar (A.R.Muratova, M.Yu.Dorojenko, O.V.Pantelishina)ning fikrlari o‘rganilib, vakillik yuridik harakatlarni sodir etishga nisbatan o‘z vakolatlarini boshqa shaxsga ishonib topshirishga qaratilgan munosabat, degan xulosaga kelinadi. Shuningdek vakillik munosabatlarning asosiy yadrosi sanalgan “vakolat” tushunchasi tahlil qilinib, vakolat – uni beruvchi tomonidan amalga oshiruvchi taqdim etilayotgan “huquqlarni amalga oshirish, bitimni tuzishga nisbatan litsenziya” sifatida ko‘rilishi mumkin degan fikr ilgari suriladi. Shuningdek “vakolat” borasidagi fikrlar (J.Hupka, K.Larenz, M.Wolf) tahlili asosida muallif tomonida “vakolat” har qanday holatda shaxsga tegishli bo‘lgan huquqlar va imkoniyatlar jamlanmasidir va bu jamlanmani u o‘z xohishicha tasarruf etadi, degan mushohada yuritaladi.

Bundan tashqari tadqiqot ishida “vakolat”ning subyektiv huquqlar, sekundar huquqlar, yuridik fakt ekanligi haqidagi ko‘plab huquqshunos olimlar (M.I.Braginskiy, A.B.Babaev, S.A.Ivanova, V.Ye.Karnushin, E.Zekkel, A.V.Germanov, F.O.Bogatirev va boshqalar)ning fikrlari tahlil qilinib, “vakolat” bu vakilga boshqa shaxs (vakolat beruvchi) tomonidan berilgan muayyan huquqlarni amalga oshirish imkoniyati hisoblansa, “sekundar huquq” muayyan huquqiy munosabat doirasida bir shaxs manfaati yo‘lida ikkinchi shaxsning qonunchilikda belgilangan doirada yuridik harakatlarni amalga oshirish imkoniyati sifatida baholanishi mumkin, degan to‘xtamga kelinadi.

Dissertantning fikricha, fuqarolik huquqida vakillik instituti hozirgi bosqichda qonunchilikni tartibga solishni va ushbu huquq sohasining o‘ziga xos xususiyatlariga javob beradigan ilmiy yondashuvlarning paydo bo‘lishini talab qiladi. Ushbu muammolarni hal qilish nazariya va amaliyot nuqtai nazaridan asosiy

vazifa bo'lgan vakillik institutiga bo'lgan haqiqiy talab bilan belgilanadi, bu ilmiy va nazariy rivojlanishning to'liq emasligi va huquqni qo'llash amaliyotidagi qiyinchiliklardan kelib chiqadi.

Tarmoqlararo vakillik instituti ko'rib chiqilayotgan huquqiy fiksiya sifatida u yoki bu sabablarga ko'ra muhtoj bo'lgan fuqarolik aylanmasi ishtirokchilarining huquqiy imkoniyatlarini kengaytirishga imkon beradi. Bular fuqarolik muomala layoqatiga ega bo'lmagan shaxslar (masalan, mehnatga layoqatsiz fuqarolar, ruhiy salomatlik yoki yoshi tufayli ya'ni, voyaga yetmagan muomalaga layoqatsizlar fuqarolar) bo'lib ular uchun vakillik fuqarolik aylanmasida ishtirok etishning yagona yo'li, shuningdek, fuqarolik huquqiy munosabatlari doirasida o'z manfaatlarini ko'zlab mutaxassislarni jalb qilgan holda huquqiy imtiyozlar olishni istagan shaxslar ham vakillikdan foydalanishlari mumkin.

Tadqiqot ishida vakillik huquqiy asoslarining rivojlanish genezisi qadimgi Rim huquqiga borib taqalishi, keyinchalik Rim huquqidagi vakillikda mavjud bo'lgan vakil va vakolat beruvchi shaxs bir deb hisoblangan yondashuvdan farqli ravishda bir nechta nazariyalar yaratilganligi asoslantirilgan. Bunda "xayoliy (fiktiv) topshiriq" nazariyasi (Fransiya, Belgiya, Argentina, Braziliya, Chili), "ajratish nazariyasi" (Germaniya, Shveysariya, Turkiya, Gresiya, Shvesiya, Daniya, Norvegiya, Finlyandiya, Yaponiya, Italiya), "shaxsiyatning o'xshashligi nazariyasi" (Buyuk Britaniya, AQSh) kabi nazariyalar tahlil qilingan.

Dissertatsiyaning "**Vakillik munosabatlari subyektlari va mazmunining ilmiy-amaliy jihatlari**" nomli ikkinchi bobida vakolat beruvchining huquqiy maqomi ifodalashning asosiy masalalari, vakilning huquqiy maqomining o'ziga xos jihatlari, vakilning huquq va majburiyatlarini amalga oshirilishi kabi masalalar tadqiq etilgan.

Vakolatsiz vakillikning o'zi mavjud bo'lmaganidek, vakolat beradigan shaxsning muomala layoqatiga ega emasligi ham vakillikni yuzaga keltirmaydi. Bunda vakolat beruvchi faqat vakolat berish bilan cheklanmasdan vakillikning huquqiy oqibatlarini zimmasiga oladigan darajadagi mas'uliyatga ham ega bo'lishi talab etiladi. Boshqacha aytganda, vakillik "odatdagi" ermak uchun yuzaga keladigan munosabat emas, balki vakolat beruvchining fuqarolik huquqlarini amalga oshirish va manfaatlarini ta'minlashga qaratilgan muayyan yuridik harakatlar majmuidan tashkil topadi.

Dissertatsiyada vakolat beruvchining shaxsi borasida yuridik adabiyotlarda (I.B.Zokirov, L.V.Kaysidi) bildirilgan fikrlar tahlil qilinib, vakolat beruvchining huquqiy maqomini belgilashda vakolatning vujudga kelish asosiga emas, balki vakolat beruvchining shaxsiga va vakil tomonidan tuzilgan bitimning huquqiy oqibatini qabul qila olish layoqatiga e'tibor qaratish lozim, degan xulosaga kelinadi.

Ishda voyaga yetmagan shaxslar nomidan vakillikdagi vakolat masalalari o'rganilgan va ayrim mualliflar (N.A.Ashurova, A.A.Tolmachyova, R.F.Yolkina, R.Matkurbanov) bilan ilmiy polemikaga kirishilib, FKning 131-moddasini takomillashtirishga oid taklif ishlab chiqiladi. Uchinchi shaxslar bilan bo'lgan munosabatlarda vakilning shaxsi muhim o'ringa ega. Shu sababli ham vakil orqali munosabatlarga kirishilayotganda vakolat beruvchining bilim yoki axborotga ega emasligi, bitim tuzish chog'ida vakolat beruvchining bunday niyati mavjud emasligi yoki uning bilmay qolganligi ahamiyat kasb etmaydi. Ushbu

muammoni yechimi sifatida FKga “niyatning yo‘qligi, bilim, bilish majburiyati” nomli 134¹-moddani kiritish taklifi asoslantiriladi.

Shuningdek dissertatsiyada vakil tomonidan tuzilgan bitim yuzasidan nizolashish masalalari bo‘yicha Germaniya va Fransiya kabi davlatlarning tajribasi o‘rganilib, O‘zbekiston huquqiy tartiboti sharoitida bitimga, shu jumladan vakilning irodasi nuqsoni oqibatda tuzilgan bitimga e‘tiroz bildirish huquqi faqat nizolashayotgan bitimning huquqiy oqibatlarini bekor qilishga qaratilgan sudga murojaat qilishga bo‘lgan himoya huquqi sifatida ko‘rib chiqilishi mumkin, degan xulosaga kelinadi.

Dissertantning fikricha, sivilistik doktrinada o‘zaro ishonchga asoslangan vakillik munosabatlarida vakilga ishonch bildirgan vakolat beruvchi uning harakatlari salbiy oqibatlari uchun mas‘uliyatni zimmasiga olishi qoidasi amal qiladi. Biroq bunday yondashuv keyingi yillarda o‘zgarib bormoqda. Shu munosabat bilan FKning 129-moddasiga ham vakilning vakolat beruvchi manfaatlariga zid bo‘lgan harakatlari, vakolat doirasidan chetga chiqishi va belgilangan talablarga zid harakatlari oqibati tuzgan bitimini haqiqiy emas deb topish talabi bilan da‘vo qilish huquqini vakolat beruvchiga berish haqidagi qoidani kiritish taklifi ilgari suriladi.

Vakil o‘zga shaxs nomidan bitim tuzish orqali yuridik harakatlarni amalga oshiruvchi shaxs hisoblanadi. Bu holat vakillik oid FKda belgilangan umumiy qoidalar (FKning 10-bobi) va topshiriq munosabatlariga bag‘ishlangan normalardan (46-bob) kelib chiqadi. Aynan o‘zga shaxs nomidan yuridik harakatlarni amalga oshirishi orqali vakil boshqa shaxs manfaati uchun yuridik va faktik harakatlarni amalga oshiradigan turli fuqarolik-huquqiy konstruksiyalardagi boshqa ishtirokchilardan farq qiladi. Shundan kelib chiqib dissertatsiyada vakilning tegishli huquqiy munosabat ishtirokchisi sifatidagi huquqiy maqomini belgilash ham aynan vakilning turdosh munosabatlarda boshqa shaxs manfaatlari uchun harakat qiluvchilar: vositachi, agent, reeltor, diler, broker va shu kabilardan farqi tahlil qilinadi.

Dissertatsiyada vakil tomonidan amalga oshiriladigan fuqarolik-huquqiy harakatlar uchta asosiy guruhga: bitimlar (RechtsGESchafte), bitimlarga o‘xshash harakatlar (GESchafthsahnlichen Handlungen) va real harakatlar (Realakte) bo‘linishi asoslantirib, mazkur harakatlarning yuridik tabiati va huquqiy oqibatlari ochib beriladi. Bunda xorijlik mualliflar (R.Leonhard, A.Manigk, A.Tuhr, K.Larenz, M.Wolf, S.Schlossmann, R.Hoffmann)ning qarashlari hamda german doktrinasi tahlil qilinadi.

Dissertatsiyaning **“Vakillik turlarining huquqiy tavsifi va vakillik munosabatlarini fuqarolik-huquqiy tartibga solishni takomillashtirish”** nomli uchinchi bobida vakillik turlarining tasniflanishi va ularning namoyon bo‘lishning fuqarolik-huquqiy tartibga solinishi, vakolatsiz vakillik va tijorat vakilligini takomillashtirish masalalari, vakillikni rasmiylashtirish asoslarini takomillashtirish muammolari tahlil qilingan.

Fuqarolik huquqi doktrinasida vakillik bir nechta asoslar va mezonlarga ko‘ra bir qator turlarga bo‘linadi. Jumladan, FKning 129-moddasiga ko‘ra vakillik vujudga kelish asoslariga ko‘ra: “ishonchnomaga, qonunga, sudning qaroriga va davlat organing hujjatiga” asosan vujudga keladi. Shu bilan birga vakillikning umumiy va maxsus, shartnomali va qonuniy kabi turlari ham ajratiladi. Umumiy

vakillik vakil nomidan barcha yuridik harakatlarni amalga oshirish vakolatini ifoda etsa, maxsus vakillik faqat bir martalik harakatlarni nazarda tutadi. Bundan tashqari vakillikning suddagi vakillik, professional vakillik, tijorat vakilligi kabi turlari ham mavjud. Shuningdek “muomalaga layoqatli nomidan vakillik” (FKning 130-moddasi) va “muomalaga layoqatsiz nomidan vakillik” (FKning 131-moddasi) ham vakillikning turlari sifatida farqlanadi.

Dissertatsiyada vakillikni turlarga ajratishning aniq mezonlari va asoslari borasida yuridik adabiyotlarda bildirilgan fikrlar (I.B.Zokirov, D.B.Korotkov, M.V.Sergeeva-Levitan, M.Yu.Dorojenko, A.A.Kuzmishin) tahlil qilinib, vakillik amalga oshiriladigan sohaga qarab, fuqarolik “maishiy” yoki tijorat (tadbirkorlik), fuqarolik-huquqiy va tijorat vakilligi ajratilishi borasida to‘xtamga kelinadi.

Dissertantning fikricha, Fuqarolik huquqida vakillikni, shu jumladan ixtiyoriy vakillikni boshqa huquq sohalaridagi vakillikdan ajratish masalasini hal qilish ahamiyatsiz emas, ixtiyoriy vakillikni institutsionallik nuqtai nazaridan ko‘rib chiqish talab etiladi. Huquq nazariyasiga ko‘ra, huquq instituti – bu bir tarmoq yoki bir nechta huquq sohalarida obyektiv ravishda ajratilgan huquqiy tizimning elementi, ijtimoiy munosabatlarning bir hil guruhini tartibga soluvchi huquqiy normalar to‘plamidir.

Shartnomaviy vakillikni vujudga keltiradigan eng asosiy shartnomalarning biri bu topshiriq shartnomasi hisoblanadi, lekin bu shartnoma o‘ziga xos xususiyatlar bilan ajralib turadi, ushbu shartnomada vakilni topshiriqni bajarishga majburlaydigan huquqiy ta’sir o‘tkazish usullari mavjud emas, shu bois u istagan paytda shartnomadan voz kechishi va majburiyatlarni bajarishni to‘xtatishi mumkin, bu holatda esa o‘z-o‘zidan ko‘rinib turibdiki, ikkinchi tarafga zarar yetkazishga real xavf bor, kodeksda esa faqat vakil manfaatlari hisobga olingan, ya’ni shartnomadagi topshiriq vakil tomonidan to‘liq bajarilishidan oldin bekor qilinadigan bo‘lsa, vakilning bundan ko‘radigan ziyonlarini hisobga olgan holda unga to‘lanishi kerak bo‘lgan xarajatlar ko‘rsatilgan. Dissertantning fikricha, qonunchilik ushbu shartnomadagi majburiyatlarni bajarmaslikdan (ayniqsa topshiriq bajarilmagan holat, uni bekor qilishdagi zararlardan) kelib chiqadigan zararlarni uchun javobgarlikni aniq tarzda ko‘rsatgan holda 823¹- moddasini kiritish maqsadga muvofiq bo‘lar edi.

Dissertatsiyada vakolatsiz vakillik holatida vakolat beruvchining harakatlarni “ma’qullashi” borasidagi huquqshunos olimlar (V.S.Kuxlivskiy, S.G.Shevsov, Ye.A.Krashennikov, Yu.V.Baygusheva) tomonidan bildirilgan fikrlar o‘rganilib, “ma’qullash” ham o‘ziga xos yuridik harakat bo‘lib, uning oqibatida shaxs o‘zi uchun huquq va majburiyat yuzaga kelishiga roizilik bildirgan hamda mazkur huquqiy oqibatlarni qabul qilishini bildirgan hisoblanadi, degan fikrga kelinadi. Shuningdek ishda “vakolatsiz vakillik”ka bag‘ishlangan FKning 132-moddasida vakolat beruvchi vakolatsiz tuzilgan bitimni ma’qullamaganda qanday huquqiy oqibat yuzaga kelishi borasida aniq ko‘rsatmalarni nazarda tutmaganligidan kelib chiqib, ushbu normani takomillashtirish yuzasidan taklif ishlab chiqiladi.

Tadqiqot ishida vakillikni rasmiylashtirish asosi hamda uchinchi shaxs bilan bo‘lgan munosabatlarda vakil vakolatlarini tasdiqlovchi hujjatlari sifatida ishonchnoma va topshiriq shartnomalarining yuridik tabiati o‘rganiladi. Amalga oshirilgan tahlillar asosida FKning 134, 140, 143-moddalariga qo‘shimcha va o‘zgartishlar kiritish hamda “qaytarib berilmaydigan ishonchnoma” nomli

144¹-moddani kiritish taklifi asoslantiriladi. Shuningdek topshiriq shartnomasiga oid FKning 820-821, 823-moddalarini takomillashtirish yuzasidan tavsiyalar ishlab chiqiladi.

XULOSA

Vakillik munosabatlarini fuqarolik-huquqiy tartibga solishni takomillashtirish mavzusidagi tadqiqot ishi natijasida quyidagi ilmiy-nazariy hamda amaliy taklif va xulosalar ishlab chiqildi:

I. Ilmiy nazariy xulosalar:

1.1. Amalga oshirilgan tahlillar asosida fuqarolik huquqidagi vakillik tushunchasiga quyidagi mualliflik ta'rifi ishlab chiqildi: Fuqarolik huquqida vakillik – bu bir shaxs (vakil) boshqa shaxs (vakolat beruvchi) nomidan va uning manfaatlarini ko'zlab harakat qiladigan, shu bilan birga u uchun huquq va majburiyatlarni vujudga keltiradigan huquqiy institutdir. Ushbu institut ishonch va vakolatlarni topshirishga asoslangan bo'lib, turli shakl va turlarga ega bo'lishi mumkin, shu jumladan ishonchnoma, agentlik, ishonchli boshqaruv va boshqalar;

1.2. Vakillik bir shaxsning boshqa shaxs nomidan uning uchun huquqiy oqibatlarni yuzaga keltiradigan bitimlar (yuridik harakatlar) tuzishga qaratilgan faoliyatidir. Vakillikni aynan faoliyat, vakilning xizmatlari yoki boshqa shaxs (vakolat beruvchi) manfaatlari yo'lidagi harakati sifatidagi talqini huquqiy tartibga solish nuqtai nazaridan “vakolat beruvchi – vakolat – vakil” elementlarini ifodalaydi. Shu sababli vakillikning mazmunini tashkil etuvchi “vakolat” bir tomondan vakil uchun “boshqa shaxs nomidan yuridik harakat qilish uchun ruxsat, rozilik yoki faoliyat uchun xususiy “litsenziya”” sifatida talqin etilsa, boshqa tomondan “subyektiv huquq, sekundar huquq, yuridik fakt” sifatida baholanishi mumkin;

1.3. Dissertatsiyada fuqarolik huquqidagi vakillikni tushunish, talqin qilish va qo'llashga nisbatan “xayoliy (fiktiv) topshiriq” nazariyasi (Fransiya, Belgiya, Argentina, Braziliya, Chili), “ajratish nazariyasi” (Germaniya, Shveysariya, Turkiya, Gresiya, Shvesiya, Daniya, Norvegiya, Finlyandiya, Yaponiya, Italiya), “shaxsiyatning o'xshashligi nazariyasi” (BuyukBritaniya, AQSh) kabi nazariyalar tahlil qilindi va O'zbekiston qonunchiligi “ajratish nazariyasi” asoslanishi aniqlandi. Milliy qonunchilikning mazkur nazariyaga asoslanishi bevosita vakillik munosabatlarning barcha taraflari manfaatlariga mos keladi va mazkur nazariya doirasi vakillik munosabatlarining rivojlanishi maqsadga muvofiqdir;

1.4. Dissertatsiyada vakolat beruvchining huquqiy maqomini belgilashda vakolatning vujudga kelish asosiga emas, balki vakolat beruvchining shaxsiga va vakil tomonidan tuzilgan bitimning huquqiy oqibatini qabul qila olish layoqatiga e'tibor qaratish lozim. Garchi, vakolat qonun bo'yicha yoki sudning qaroriga ko'ra vujudga kelsada, vakolat beruvchi sifatida davlat organi yoki sud emas, balki manfaat ko'zlangan shaxs, mazkur vaziyatlarda voyaga yetmagan fuqaro yoki muomalaga layoqatsizlar bitim oqibatini qabul qiluvchilar hisoblanadilar. Shunday ekan, ularning bitim layoqati masalasi va vakil tomonidan tuzilgan bitim yuzasidan

vujudga keladigan huquqiy oqibat kimga nisbatan vujudga kelishi munozarali holatda qoladi;

1.5. Voyaga yetmagan shaxs nomidan ko'chmas mol-mulk obyektlarining uning qonuniy vakillari tomonidan begonlashtirishga oid bitimlarni tuzishda tegishli organlarning roziligini olish masalasini qonunchilik darajasida belgilash maqsadga muvofiqdir;

